

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***  
**TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturlarining boshlang‘ich**  
**ta’limdagi o‘rni**

*Nabiyeva Rohilaxon Erkinjon qizi- FarDU talabasi.*

*Muhammadjonova Farangizbegim Ma’mirjon qizi- FarDU talabasi.*

*G’ulomjonova Mubdi’mma G‘ayratjon qizi- FarDU talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bugungi kunda “Xalq ta’limi” tizimida va asosan, umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘inida xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati hamda ta’lim tizimidagi afzalliklari to‘g‘risida fikr yuritadi. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlarining zamonaviy ta’lim tizimiga kirib kelayotgan o‘rni haqida mulohaza yuritadi.

**Kalit so‘zlar:** TIMSS, PISA, TALIS, xalqaro baholash dasturlari, zamonaviy ta’lim tizimi, baholash mazmuni.

Mamlakat bo‘ylab amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan maktab o‘quvchilarining darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim- tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi. Kelajak egalarining zamonaviy bilim, intellektual salohiyat, ilm-u ma’rifat, erkin fikr, ilg‘or texnologiyalarni tadbiq etish, jahonda e’tirof etilgan uslub va an’analarni qo‘llash malakasiga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim tizimidagi islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan bo‘lib, xalqaro mezonlar asosida dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida qo‘llanayotgan va katta samara berayotgan ta’lim texnologiyalari, baholashning xalqaro talablariga muvofiq bo‘lishiga e’tibor berilmoqda. Dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida ta’lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari amaliyatga muvaffaqiyatli tadbiq etilmoqda. Taraqqiyot odimlari bilan jahonga yuz tutayotgan O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim sohasida

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

baholashning xalqaro mezonlari qo'llanilmoqda. Ma'lumki, ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash orqali dunyo mamlakatlari bilan qiyosiy tahlillar olib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yil 8-dekabrda «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaror qabul qilingan. Qarorda ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi huzurida ta'lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilib, ta'lim sifatini belgilash bo‘yicha qator xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi belgilab qo‘yilgan. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar va ularni hayotga tadbiq etish yo‘llari atroflicha belgilab qo‘yilmoqda.

**TIMSS** - xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo‘sishma ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o‘quv jarayoni, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq belgilari o‘rganiladi.

TIMSS dasturi o‘zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo‘lib, 2019-yilga qadar har to‘rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

**PISA** ([inglizcha](#): *Programme for International Student Assessment*) — turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning [savodxonligini](#) (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur.

**PISA** testlari maktab o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarini tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Ushbu dastur 1997-

## **Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi**

---

yilda joriy etilgan bo‘lib, har uch yilda bir marta o‘tkaziladi, bиринчи мarta 2000-yilda o‘tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo‘nalishiga afzallik berilib, jami testlar majmuasining deyarli 50% shu fanga mansub bo‘ladi. 2000-yilda ilk bor o‘qish savodxonligiga urg‘u berilgan.

**Talis** (The Teaching and Learning International Survey) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta`lim muassasalarida o‘qitish va ta`lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish tadqiqoti hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar va maktab rahbarlarining kasbiy va pedagogik rivojlanishi, shuningdek, ta`limdagi muhit va sharoitlar haqida tegishli tahlillarga imkon beruvchi mustahkam ko‘rsatkichlar bo‘yicha ishonchli va taqqoslanadigan ma’lumotlarni ishlab chiquvchi tadqiqotdir. Talis Xalqaro baholash tadqiqotlarida 2024-yil O‘zbekistonning ilk ishtiroki ta`minlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual darajasini rivojlantirishda zamonaviy axborot resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanish, xalqaro baholash dasturlaridan kerkalicha foydalanish o‘quvchilarning muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish, komponentlar, tushunchalar, ko‘nikmalar, jarayonlarni o‘rganish va baholash singari y o‘nalishlarni ta‘minlab berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o‘rganilib, O‘zbekiston Respublikasiga xos xususiyatlar, qadriyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiya qilish lozim. Hozir Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan malaka oshirish, chet el professorlarini O‘zbekistonga olib kelib ma’ruza o‘qitish, bakalavr va magistr dasturlarini rivojlangan mamlakatlardagi o‘quv dasturlariga yaqinlashtirish ishlari olib borilmoqda. Xuddi shu tizim asosida Oliy ta‘lim tizimida ishlayotgan tajribali o‘qituvchilarni maktablarga biriktirish, kafedralarning hududiy filiallarini ochish orqali maktab o‘qituvchilari salohiyatini rivojlantirish ishlari ham jadal olib borilmoqda. Bugungi kunda hamkorlikni boshlagan Oliy va xalq ta‘limi tizimlari oldida turgan asosiy maqsad ham shu — boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga amaliy yordam ko‘rsatish.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Xulosa qilib aytganda, mamlakat innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajak davomchilari hisoblangan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini yanada takomillashtirish, shu asnoda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X 237 <http://oac.dsmi-qf.uz>
2. "PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari": To'plam " - Axborot-tahlil markazi" AQ. Astana. 2016-126 bet.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
- 4.<https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-quvchilarining-bilimini-baholashda-xalqaro-baholash-tadqiqotlaring-ahamiyati-va-afzalliklari>
- 5.<https://uz.wikipedia.org/wiki/TIMSS>